

## VII. ISTE'MOL BOZORI CHAKANA SAVDO

### Tovar aylanmasi

2025- yilning yanvar-sentabrda chakana tovar aylanmasi 20 442,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,8 foizni tashkil etdi.

### Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabrda nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Jami</b>	<b>20 442,3</b>	<b>108,8</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	18 062,9	108,8	88,4
undan fuqarolarning xususiy mulki	2 379,4	108,4	11,6












Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida 20 442,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,8 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 10 571,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,2 foizga o'sdi.

### 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Chakana tovar aylanmasi</b>	<b>20 442,3</b>	<b>108,8</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	7 491,3	111,2	36,7
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	10 571,6	107,2	51,7
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	2 379,4	108,4	11,6




## Uyushmagan savdo tovar aylanmasi




<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>604,9</b> mlrd. so'm</p>  <p>56,5 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>163,8</b> mlrd. so'm</p>  <p>15,3 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p><b>46,0</b> mlrd. so'm</p>  <p>4,3 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>72,8</b> mlrd. so'm</p>  <p>6,8 %</p>	<p><b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p><b>26,8</b> mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>27,8</b> mlrd. so'm</p>  <p>2,6 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>49,3</b> mlrd. so'm</p>  <p>4,6</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>34,3</b> mlrd. so'm</p>  <p>3,2 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>10,7</b> mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>11,8</b> mlrd. so'm</p>  <p>1,1 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>3,2</b> mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>19,3</b> mlrd. so'm</p> <p>1,8 %</p>




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 070,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (604,9 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: chorva (parranda) bozorlari

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 308,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 908,4 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 341,5 mlrd. so'mni, otlar 52,3 mlrd. so'mni, parrandalar 5,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:

<b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b>	<b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b>	<b>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b>
<b>579,9 mlrd. so'm</b>	<b>252,6 mlrd. so'm</b>	<b>75,9 mlrd. so'm</b>
 44,3 %	 19,3 %	 5,8 %

<b>Qo'yla</b>	<b>Otlar</b>	<b>Echkilar</b>
<b>198,9 mlrd. so'm</b>	<b>52,3 mlrd. so'm</b>	<b>142,6 mlrd. so'm</b>
 15,2 %	 4,0 %	 10,9 %


<b>Kurka, o'rdak, g'oz</b>	<b>Tovuqlar</b>	<b>Quyionlar</b>
<b>1,3 mlrd. so'm</b>	<b>3,9 mlrd. so'm</b>	<b>1,3 mlrd. so'm</b>
 0,1 %	 0,3 %	 0,1 %



## Ulgurji savdo tovar aylanmasi

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 406,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 109,5 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 786,1 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 124,0 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 5 620,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 107,8 % ga o'sdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Umumiy ovqatlanish sohasining savdo tovar aylanmasi 16 231,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 115,1 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida aholi jon boshiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,5 foiz bo'lib, 5 572,4 ming so'mni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 20 442,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,8 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 1032,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 116,0 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo tovar aylanmasi 6 458,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,5 %), jismoniy shaxslarning savdo tovar aylanmasi 10 571,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 379,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,4 %) tashkil etdi.

**Yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar  
aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo'lgan Qarshi shahri (viloyat bo'yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi (29,8 %), Shahrisabz shahri (8,1 %), Koson (7,3 %) va Qamashi tumanlari (6,1 %) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 1 032,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,0 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,1 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 19 409,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,4 foizni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,9 foizga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (jamiga nisbatan foiz hisobida)



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<i>yirik korxonalar (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>	<i>kichik tadbirkorlik (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1 032,6</b>	<b>116,0</b>	<b>19 409,6</b>	<b>108,4</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	394,0	105,3	5 692,9	107,9
Shahrisabz sh.	61,4	126,5	1 591,8	110,7
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	46,0	125,6	776,1	108,2
Dehqonobod	11,7	194,5	673,6	106,9
Qamashi	39,1	324,3	1 201,4	106,5
Qarshi	13,2	128,5	537,2	109,8
Koson	75,7	85,4	1 413,7	112,0
Kitob	20,9	111,1	1 038,5	109,7
Mirishkor	6,0	123,3	720,0	107,6
Muborak	38,1	1 608,8	511,9	104,7
Nishon	7,4	135,6	751,8	107,7
Kasbi	8,1	122,7	801,4	107,3
Ko‘kdala	49,1	116,8	492,7	108,1
Chiroqchi	46,8	126,0	1 036,6	108,0
Shahrisabz	101,2	97,4	678,2	110,7
Yakkabog‘	19,7	179,3	901,4	106,7

2025- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o‘sish sur‘ati bo‘yicha Koson tumani (112,0 %), Shahrisabz shahri (110,7 %), Shahrisabz tumani (110,7 %), Qarshi tumani (109,8 %), Kitob tumani (109,7 %), G‘uzot tumani (108,2 %) yuqori darajada bo‘ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,1 foizni tashkil etib, yirik korxonalarining eng katta ulushi Shahrisabz tumanida (13,0 %), Ko‘kdala tumani (9,1 %), Muborak tumani (6,9 %), Qarshi shahrida (6,5 %) kuzatildi.